

Yangi tayinlov



Suvonkulov Axmad Xudayshukurovich viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi direktori lavozimiga tayinlandi.

U 1968 yilda Jarqo’rg’on tumanida tug’ilgan. 1994 yil Toshkent davlat texnika universitetini, 2009 yil Toshkent moliya institutini tugatgan. Ma’lumoti bo’yicha mutaxassisligi – tog’ muhandisi, moliya.

A.Suvonqulov mehnat faoliyati davomida viloyat hokimligi kotibiyat mudiri, tuman hokimining o’rinbosari, Moliya, Iqtisodiyot va sanoat vazirliklarida turli vazifalarda hamda Surxondaryo viloyati hokimining o’rinbosari lavozimlarida mehnat qilgan.

Tayinlovga qadar 2023 yildan buyon “Surxon sanoat qurilish” kompaniyasi direktor o’rinbosari lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan edi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)